

## TEXNIKUM O'QUVCHILARIGA BIZNES ASOSLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

**Jo'rayeva Dilfuza**

*Biznes asoslari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada texnikum o'quvchilariga biznes asoslarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *biznes asoslari, innovatsion yondashuv, tadbirkorlik, kompetensiya, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar.*

### KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Shu sababli texnikumlarda biznes asoslari fanini zamonaviy metodlar asosida o'qitish dolzarb masala hisoblanadi..

Biznes asoslarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Loyihaviy ta'lim, keys-stadi, biznes o'yinlari va startap loyihalar bilan ishlash o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilar zamonaviy biznes muhiti bilan yaqindan tanishadilar. Elektron platformalar, onlayn kurslar va biznes simulyatorlari talim samaradorligini oshiradi.

Innovatsion yondashuvlar natijasida moliyaviy savodxonlik, marketing bilimlari, biznes rejalashtirish, liderlik va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa. Texnikum o'quvchilariga biznes asoslarini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi hamda yoshlarning kelgusidagi tadbirkorlik faoliyati uchun mustahkam zamin yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Abduqodirov A.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.
3. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship.
4. Kotler P. Marketing Management.